

Jonli va jonsiz tabiat



Men atrofimdagi o'simliklar va hayvonlarni, bulutlar hamda Quyoshni kuzatishni juda yaxshi ko'raman.



Atrofimizdagi tabiat juda xilma-xil. Qiziq, tabiat obyektlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



Tabiat odamni o'rab turgan va uning ishtirokisiz paydo bo'lgan barcha narsalardir. Tabiatga yulduzlar va Oy, dengizlar va okeanlar, tog'lar va bulutlar, o'rmonlar va hayvonlar, biz nafas oladigan havo hamda sayyoramizni isitadigan quyosh nuri kiradi.




Rasmda qanday tabiat obyektlarini ko'ryapsiz? Ularni qanday guruhlariga ajratish mumkin?



Olimlar tabiatni shartli ravishda ikkita katta guruh – **jonli** va **jonsiz tabiatga** ajratadilar.

Jonli tabiatga odamlar, hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar va bakteriyalar kiradi. Jonsiz tabiatga esa suv, tuproq hamda atrofimizdagi olamning boshqa obyektlari kiradi.



Bakteriyalar Yerdagi eng kichik tirik organizmlardir. Ularni faqat mikroskop yordamida ko'rish mumkin.

Barcha **tirik organizmlar** umumiy belgilarga ega: ular o'sadi, oziqlanadi, nafas oladi, ko'payadi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga javob qaytaradi va vaqt o'tishi bilan nobud bo'ladi.

Ko'pchilik tirik organizmlar suv, havo va oziq moddalarga muhtoj. Ular atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslasha oladi.



O'simliklar va hayvonlar yil fasllaridagi o'zgarishlarga qanday moslashishini so'zlab bering.



Nima uchun jonli va jonsiz tabiatni farqlay olish muhim?



Rasmlarga qarang. Ularda jonli va jonsiz tabiatning qanday obyektlari tasvirlangan? Bu obyektlar o'zaro qanday bog'langan?

Jonli tabiat jonsiz tabiatga mavjud bo'la olmaydi

O'simliklar tuproqdan suv va mineral moddalarni, Quyoshdan yorug'likni, havodan esa karbonat angidrid gazini oladi. Shu tufayli ular oziq moddalar hosil qiladi va kislorod ajratadi.



Hayvonlar va **odam** kislorod bilan nafas oladi, suv ichadi, o'simliklar yoki boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi.

Zamburug'lar va **bakteriyalar** organik qoldiqlarning parchalanishida ishtirok etib, moddalarni tuproq va atmosferaga qaytaradi.

Jonli va jonsiz tabiatning o'zaro ta'siri moddalar aylanishida ham namoyon bo'ladi. Masalan, suv aylanishida: dengizlar, daryolar va ko'llardagi suv bug'lanadi, bulutlarni hosil qiladi, keyin yomg'ir yoki qor ko'rinishida yerga qaytib tushadi. So'ngra undan o'simliklar, hayvonlar va odam foydalanadi.



Hayvonlar tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi. Masalan, ko'rsichqonlar va yomg'ir chuvalchanglari tuproqni yumshatib, uning unumdorligini oshiradi. Marjonlar dengiz va okeanlar tubida yirik marjon qoyalarini hosil qiladi.



ko'rsichqon



yomg'ir chuvalchangi



marjon qoyasi

Shu bilan birga, jonli tabiat jonsiz tabiatni ham o'zgartiradi. Daraxtlarning ildizlari toshlarni asta-sekin yemirib, tuproqqa aylantiradi. O'rmonlar namlikni saqlaydi, havoni tozalaydi va iqlimni yumshatadi. Odam esa yo'llar va shaharlar qurish bilan landshaftni o'zgartiradi.



Landshaft Yer yuzasining tabiiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan qismidir. Landshaftlar tabiiy va odam tomonidan yaratilgan bo'ladi.



Tasavvur qiling, siz jonli yoki jonsiz tabiat obyektisiz. Partadoshingiz bilan ma'lumot almashing. Tanlagan tabiat obyektlaringiz o'zaro qanday bog'langanini aniqlang.

Nima uchun tabiatni asrash kerak?



toza suv



unumdor tuproq



toza havo

Toza suv, unumdor tuproq, toza havo va quyosh nuri Yerdagi hayotning asosi hisoblanadi. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi o'simliklar hamda hayvonlarning nobud bo'lishiga olib keladi va tabiiy muvozanatni buzadi.



havoning ifloslanishi



suvning ifloslanishi



tuproqning ifloslanishi



Olamimizdan suv, havo, tuproq va quyosh nuri kabi jonsiz tabiat obyektlari yo'q bo'lib qolganini tasavvur qiling. O'simliklar, hayvonlar va odam ularsiz yashay oladimi? Nima uchun?



1. Tabiat nima?
2. Jonli tabiat jonsiz tabiatdan qanday belgilari bilan farq qiladi?
3. Jonli tabiatning jonsiz tabiatga ta'siriga misollar keltiring.
4. Suv aylanishi jonli va jonsiz tabiatni qanday bog'laydi?
5. Nima uchun tabiatni asrash muhim?



Hovliga yoki ko'chaga chiqing. Ko'rgan jonli va jonsiz tabiat obyektlaringizdan kamida to'rttasini ayting. Ularning o'zaro qanday bog'liqligini tushuntiring.

